



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

14.01.2022 yil

Beshariq tuman
Tibbiyot birlashmasi

XULOSA

(Tibbiyot birlashmasining № NET-281/1 -sonli
shartnoma loyihasiga)

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyhaning nomi: Internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
№ NET-281-sonli shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman
Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 13 yanvar kuni ishlab chiqilib, 2022 yil 13 yanvar
kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo'yicha taklif: Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi hamda
“O'zbektelekom” AK Farg'ona filiali o'rtasida internet va telekommunikatsiya xizmatlarini
ko'rsatish to'g'risidagi № NET 281/1-sonli shartnoma tuzilgan. Shartnoma summasi 3 000 000
(hisob-kitob million) so'm bo'lib, unga QQS bilan 1 000 000 (Bir million so'm 00 tiyin) oylik
abonent to'lovi kiradi. Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi
o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo'jalik
yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi 670-I-sonli
Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq
ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori
bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha
xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida, avval tuzilgan
shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari
bo'yicha xaridlar uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti:



F.Jo'rayev